

PSIXOLOGIYANING INSON HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

**Abdujabborova Nigora Ikromjon qizi
Xasanova Gulmira Muxtorjon qizi
Andijon Davlat Pedagogika instituti “
“Maktabgacha ta’lim pedagogikava psixologiyasi”
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiyaning inson hayotiga ta’sir qilish darajasi, uning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, psixologik metodlar, tafakkur, pedagogik psixologiya, psixologik xizmat.

Hozirgi vaqtda ko‘pchilik insonlar psixologiyani bilishi va shu bilan birga ma’lum darajada psixologik bilimlardan va psixologik o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishlari mumkin. Masalan, ijtimoiy muhitdagi har bir inson psixologik ma’lumotlarni har xil internetdan, gazeta va jurnallardan, psixologik kitoblardan olishi mumkin. Shu o‘rinda psixologiya so‘ziga tarif berib o‘tsak, psixologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi grekcha “psyuxe”- jon, ruh; “logos”- fan degan ma’noni bildiradi. Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganadi. Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga kora psixikani yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko‘rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xayol, xotira va tafakkur;

Bilish faoliyatlari: diqqat, nutq jarayonlari.

Shaxsning hissiy, irodaviy sohasi: hissiyot, iroda;

Shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

Psixologiya haqidagi dastlabki fikrlar bundan ikki yarim ming yil ilgari paydo bo‘ldi. Psixologiya fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmigacha falsafa fanining tarkibida rivojlangan. Ilmiy psixologiyagacha bo‘lgan davrda psixologiya dastlabki og‘zaki fan sifatida, keyin esa yozma fan sifatida mavjud bo‘ldi. Shunga qaramasdan insonlarning jamiyatga, tabiatga va tirik mavjudotlarga va ijtimoiy muhitga nisbatan bo‘lgan munosabatlari ma’lum funktsiya va mexanizmlar yordamida qanday amalga oshirilishi, bu mexanizmlar asosini nima tashkil qilishi savol tariqasida namoyon bo‘ladi.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to‘g‘risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar kategoriyalari kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo‘lmish ong va o‘zini o‘zi anglashni tadqiq etadi.

Psixologiya sohasi bizning hayotimizda muhim rol o‘ynaydi, bizning fikrlarimiz, xatti-harakatlarimiz va his-tuyg‘ularimizga ta’sir qiladi. Bolalikdagi tajribamizdan, ta’limdagi yutuqlarimizdan, ishdagi, hayotimizdagi va shaxsiy munosabatlarimizdagi psixologiya biz qilayotgan hamma narsaga ta’sir qiladi.

Bugungi psixologiya fani ijtimoiy taraqqiyoti an’analari bilan bog‘liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to‘g‘ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a’zolariga psixologik xizmat ko‘rsatish muqarrarligini talab qiladi. Bu borada iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o‘zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko‘proq birinchi yo‘nalish „psixologik ijtimoiy psixologiya“ asoslari zaminida tarkib toptiriladi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Bolalikda psixologiya bolalarning qanday rivojlanishi va o’rganishini tushuntirishga yordam beradi, rivojlanishdagi nuqsonlar yoki o’rganishdagi buzilishlar kabi muammoli sohalar haqida muhim tushunchalar beradi. Bola rivojlanishi va xulq-atvorini tushunish ota-onalarga farzandlarini ishonch bilan tarbiyalashda va hayotlarida yaxshiroq qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Biz o’sib ulg’ayganimizda, psixologiya maqsadlarimiz, ehtirolarimiz va orzularimizni qanday qilib eng yaxshi tarzda amalga oshirishimiz mumkinligi haqida muhim ma’lumotlarni beradi. Masalan, bu odamlarga o’zlarining kuchli va zaif tomonlarini tushunishga, real va erishish mumkin bo’lgan maqsadlarni belgilashga imkon beradi. Shuningdek, u eng yaxshi kasb tanlashni tushunishga yordam beradi va yanada foydali va qoniqarli martaba olib kelishi mumkin bo’lgan strategiyalarni taklif qiladi. Ish joyida psixologiya tashkilotlarga qiziqarli, hamkorlikka asoslangan va samarali ish muhitini yaratishda yordam berishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Misol uchun, psixologiya menejerlarga odamlarning fikrlash va o’zini tutish usullarini tushunishga yordam beradi va xodimlarni samarali boshqarish, ijodkorlik va innovatsiyalarni ilhomlantirish, motivatsiyani oshirish va muloqotni yaxshilash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Psixologiya har bir insonga ma’lum darajada ta’sir qiladigan ruhiy salomatlik muammolarini tushunish va hal qilishga qaratilgan. Biror kishi ruhiy salomatlik bilan bog’liq muammolarga duch keladimi yoki do’sti yoki oila a’zosi bo’ladimi, psixologiya ruhiy farovonlikni saqlashda muhim rol o’ynaydi. Ba’zi hollarda, bu terapevti shaxsning muammolariga nima sabab bo’lishi mumkinligini tahlil qilishni va ularni engishga yordam beradigan davolash rejasini ishlab chiqishni o’z ichiga olishi mumkin. Boshqa hollarda, bu stress, tashvish, depressiya yoki boshqa ruhiy salomatlik muammolarini yaxshiroq boshqarish uchun ruhiy salomatlik haqida xabardorlik va strategiyalarni o’z ichiga olishi mumkin.

Psixologiya sog’lom shaxsiy munosabatlarni o’rnatishga yordam beradi, u sog’lom munosabatlarni saqlash uchun ishlatilishi mumkin bo’lgan muhim muloqot qobiliyatlarini ta’kidlaydi. Ishqiy munosabatlar, do’stik yoki professional hamkorlik bo’ladimi, psixologiya qanday qilib muloqot qilish, ishonchni mustahkamlash va nizolarni hal qilish bo’yicha qimmatli fikrlarni taqdim etadi. Bunda psixologiya hayotning umumiy sifatini va sog’lom yaqin munosabatlardan kelib chiqadigan baxtni yaxshilashda muhim rol o’ynaydi.

Oddiy insonning o’ziga bo’lgan qiziqishidan kelib chiqib, o’z psixologiyasini o’rganishga qiziqadilar. Psixologiyaning biz uchun afzalligi biz har kuni atrofdagi insonlar bilan muloqot qilamiz, odamlar orasida bo’lamiz, shu sababli har xil xarakterli insonlar bilan munosabatda bo’lamiz, shu orqali biz insonlar psixologiyasini o’rganamiz. Psixologiya, ayniqsa, o’sib keladigan yosh o’smir uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki uning jamiyatda o’z o’rnini topishi, yaxshi va yomonni anglashida qiyin davr hisoblanadi. O’spirinning xulq-atvoridagi o’zgarishlarda, o’ziga bo’lgan munosabatlarida va o’ziga to’g’ri baho berishda maktab psixologi yordam berishi mumkin. Tajribali psixolog sizga qanday qilib qiyinchiliklarni yengib o’tishni, muammolarni to’g’ri hal qilishni va boshqalar bilan muloqotga kirisha olishda maslahatlar berishga yordamlashadi. Bunday vaziyatlarda psixologga turli xil psixologik usullar, metodlar va test metodlari yordam beradi.

Bugungi psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma’qul va manzur bo’lgan. Lekin psixologik xizmatning keng targ’ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to’sqinlik qilib kelar edi. 1990-yillarga kelib mustaqillik, erk, o’zlikni anglash hislari hukmron bo’lgan O’zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko’zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun ham o’ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa O’zbekiston uchun xarakterli bo’lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining navbatdagi amaliyotchi-psixologlar tayyorlash bosqichiga o’tishni muqarrar qilib qo’ydi. Chunki maktabdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali amaliyotchi-psixologlar tayyorlamay turib, O’zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo’lmas ekan. Shunga muvofiq dastavval Toshkentda, so’ngra Buxoroda, keyinchalik Navoiy, Andijon, Samarqand va boshqa viloyatlarda umumta’lim maktablari uchun “Amaliyotchi-psixologlar” mutaxassisligi bo’yicha qayta tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlar Respublikamizning talaygina maktablarida psixologik xizmat tashkilotchisi, targ’ibotchisi va tadqiqotchisi samarali ish olib bormoqdalar. Psixologik xizmat qanchalik yaxshi yo’lga

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

qo’yilsa, insonlarda uchraydigan turli ruhiy holatlar ham shunchalik oson korreksiya qilinadi. Insonlar o’z hayotida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishni o’rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Urolmaxmatovna D. M. UMUMIY PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA ILMIY TADQIQOT METODLARI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 13. – C. 171-173.

2. G‘oziyev E.G‘ Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007. 1-2-kitob.

3. B.M.Umarov “Psixologiya” qo‘llanma;

4. M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” darslik;

5. Fayzullayeva S. F. PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING UZVIY BOG‘LIQLIGI //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 384-387.

6. P.I.Ivanov va M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” darslik.